

“UMID NIHOLLARI-2009”

sport musobaqalariga bag'ishlangan

Maxsus
son

2009-yil
8-iyun
N: 23
(66720)

TONG YULDUZI

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

ISSN - 2010-6092

PARVOZLAR MAYDONI

*Osmoni tinch yurtim bag'riga,
Yarashadi to'-yu tantana.
Mirzacho'lning marvaridida,
Bo'ldi ajib bir bayram yana.*

*Sport, yoshlik, do'stlik bayrami -
Hayajon-la uchdi yuraklar.
Bolajonlar qalblaridek pok,
Jarangladi ezgu tilaklar.*

*Bir bayramki, yurtning ertasi -
O'g'il-qizga berdi zo'r qanot.
Ilk parvozlari maydoni bo'ldi,
Orzularga umidbaxsh najot.*

*Qo'ldan-qo'lga ko'chib alanga,
Zo'r mash'ala bo'lib porladi.
Shijoatli, chapdast yoshlarni,
Bellashuvlar sari chorladi.*

*Ona zamin osmoni uzra,
Singib ketdi nurli yog'dusi.
Timsolida ko'kka bo'yladi,
Yurtboshimiz ezgu orzusi.*

*«Universiada», «Barkamol avlod» -
Halol bellashuvlar bari do'stona.
«Umid nihollari» erur bamisli,
Orzular qasriga eltar ostona.*

ZAMONBEKA



QUYOSH, OY HAM TINGLAGAN QO'SHIQ



Uch kun azim Sirdaryo yoshlik, shodlik qo'shig'ini kuyladi. Quyosh ham unga quloq tutdi. Oy ham uni tinglab, zarrin yog'dular sochdi. Samo esa uni pokiza havolar, mayin shabbodalar bilan siyladi.

«Quyosh o'chog'i»... Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi «Fizika – quyosh» ilmiy ishlab chiqarish markazidagi ana shu «Quyosh o'chog'i»dan olib kelingan mash'ala ezgulik shu'lalarini taratib turdi.

«Umid nihollari – 2009» sport musobaqasiga kelgan bolalar va o'smirlar, yoshlar ko'hna Sirdaryoning mavjlanib oqishidan, butun yurtga dovrug' solgan



ham kuzatdilar.

–Yurtingizda yoshlarga berilayotgan shunchalik katta e'tibordan hayratda qoldim, – deydi olmoniyalik mehmonlardan biri.

Xullas, jonajon yurtimiz o'z zarvaraqlariga yana bir tarixiy voqeani bitib qo'ydi. Hali bular to'g'risida ko'plab yoziladi.

Aziz muxlislar!


Gazetamiz «Umid nihollari – 2009» sport musobaqalarining yakuni haqida sizlarga ma'lumot berish uchun maxsus sonni e'tiboringizga havola etyapmiz.

To'liqin HAYIT

Guliston

shahrining yangicha aks etgan qiyofasidan hayratlar bo'stoniga tushib, olam zavqlariga muyassar bo'ldilar.

Oynayi jahon orqali ajoyib bellashuvlar muntazam yoritib borildi. Musobaqalarni nafaqat yurtimiz kishilari, balki chet elliklar



Guliston shahridagi final bellashuvlarida sportning 12 turi bo'yicha jami mamlakatning salkam 2 ming nafar iqtidorli maktab o'quvchilari qatnashdi.

Yakuniy bosqichgacha esa joylardagi bahslarda respublika miqyosi bo'yicha 4,5 millionga yaqin o'quvchi ishtirok etdi.

Final bosqichigacha yetib kelgan musobaqalarda salkam 2 million qizlarning ishtiroki mutaxassislar tomonidan aniqlandi.

Ishtirokchilarning 1036 nafari o'g'il bola, 756 nafari qiz bolalar. Ularga 2252 nafar murabbiy, 154 nafar hakam ajratildi.

Bellashuvlarda zarur hollarda o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun 180 nafar shifokor, 100 nafar kichik tibbiyot xodimlari jalb etildi.



«Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqalari albatta mash'ala yetib kelishi bilan tantanali boshlanadi. Hayajonli bu onlar daqiqasi yildan-yilga tarix zarvaraqlaridan joy olishga ulgurdi. Final bosqichlari 2000-yilda Namanganda, 2001-yil Jizzaxda, 2002-yilda Farg'ona va Buxoro viloyatlarida, 2003-yilda Xorazm va Andijon viloyatlarida, 2004-yilda Samarqand, 2005-yilda Toshkent viloyati, 2006-yilda Qashqadaryo viloyati, 2007-yilda Toshkent shahri, 2008-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgandi. Guliston shahri ham 2009-yilni egallab, tarixiy sanalar qatoriga kirdi. Demak, mash'ala safari 11 marta takrorlandi.

2004-yildan boshlab ushbu sport musobaqalarining respublika final bosqichi uch yilda bir marta o'tkazib kelinmoqda.



«UMID NIHOILLARI» DA...

MASH'ALA - GULISTONGACHA...

Sirdaryo viloyati, Guliston shahriga yetkazilgan mash'ala bu yil ham Parkent tumanida joylashgan «Quyosh fizikasi» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining «Quyosh o'chog'i» markazida 2600 darajali haroratda alanga oldirildi.

Musobaqa mash'ala qurilmasi va olov saqlash qurilmasi «Vatanparvar» tashkiloti tomonidan manzilga yetkazildi. Umumiy masofa 185 km, jumladan, avtomobil estafetasi -172, 3 km, piyoda sportchilar estafetasi esa 12,7 km.ni tashkil etdi.

Mash'ala qurilmasining umumiy vazni 1100 gramm. Unga yonuvchi modda parafin va quruq spirt qotishmasi singdirilgan lenta joylashtirilgan. Yonish vaqti esa 45 daqiqa.

Musobaqalar o'tadigan joyga mash'alani yetkazish yurtimizda ishlab chiqarilgan bir xil rangdagi avtomobillar korteji harakati bilan amalga oshirildi.

Mash'ala Parkent tumanidagi 1-maktab, Toshkent shahar, Bektemir tumanidagi 1-maktab, shuningdek, Zangiota tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport majmuasi, Yangiyo'l va Chinoz tumanlarida aholi tomonidan bayramona kutib olindi.

«Kichik Olimpiada» mash'alasini Guliston shahrida yoqishdek mas'uliyatli vazifasini akademik eshkak eshish bo'yicha Osiyo o'yinlari chempioni Ruslan Naurzalievga topshirildi.




Biz bolalarimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan, ham jismoniy, ham ma'naviy baquvvat, barkamol va yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun har qaysi shahar va qishloqda, barcha turar joylarimizda zamonaviy talablarga javob beradigan sport maskanlari, stadion va suzish havzalarini bunyod etish, ularni jonkuyar va malakali sport ustozlari va murabbiylar bilan ta'minlashni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yganmiz. Va bu maqsadga yaqin yillarda, hech shubhasiz, albatta erishamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom KARIMOVning «Umid nihollari-2009» sport o'yinlari qatnashchilariga yo'llagan tabrigidan



KATTA DOSTON – GULISTON

Inson mehr-muhabbatga tashna bo'ladi. G'amxo'rlik va e'tibordan boshi ko'kka yetadi. Ayniqsa, farzandlarining kelajagi uchun qayg'urayotgan, ularni ertangi vorislar deya erkalatayotgan bu yurtning beqiyos makonligini anglaganlarida, so'zda shuur, qalbdagi g'urur mavj uradi. Gulistondagi maktab o'quvchilarining «Umid nihollari – 2009» sport musobaqasi bizga yana faxr, iftixor tuyg'usini berdi.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri G'ayratjon SHOUMAROV yosh sportchilarning bellashuvlarini boshidan oxirigacha tik oyoqda turib, hayajon bilan kuzatib bordi.

Aziz bolajonlar, aying-chi, siz Mirzacho'l zaminidan qanday taassurotlar oldingiz? Yoki o'g'illari o'ktam, qizlari ko'rkam bu zaminning qay bir tarixini o'rgandingiz? Sport musobaqalari bahona birdamlik va bardamlik bayramidagi diydorlashuvdan baxtiyormisiz? 2002-yil Farg'onadagi, 2003-yil Xorazmdagi, 2006-yil Qashqadaryodagi uchrashuvlarda g'olib bo'lgan opa-akalaringizni bugun jahon va Osiyo chempionlari bo'lganliklarini qanday ifoda etyapsiz?! Bugun Mirzacho'l zaminidagi Guliston shahri yoshlik, go'zallik, baxtiyorlik tantanasiga quchoq ochdi. Musobaqalar yurt bolalarini birlashtirdi, do'stlashtirdi. Ularni yagona maqsad sari intiltirdi. Mamlakatimizda asos solingan uch bosqichli tizim yildan-yil kelajak egalari – bolalarni xalqaro maydonlar sari ruhlantirmoqda. Shak-shubhasiz, Vatan qudrati maydondagi jasorat, mashg'ulotdagi mehnat va yurtdagi oqibatdan yuksalmoqda. «Umid nihollari – 2009» musobaqalarigacha Guliston ahli mezbonlikka

peshvoz chiqishdan charchamadi. Shahardagi qad rostlagan sport majmualari endi ularning faxriga aylandi. Shahardagi salobatli «Alpomish» sport markazida 1600 o'rinli ochiq tennis korti, basketbol, g'andbol, minifutbol, voleybol va badiiy gimnastikaga mo'ljallangan yopiq sport zallari bolalar ixtiyoriga topshirildi.

Yurtboshimizning beqiyos g'amxo'rliklari hali javobsiz qolmaydi. Bu maskan chindanda Alpomishlar yurtiga aylanajak. Axir mehr bor joyda matonat shakllanadi, deb bejiz aytmaydi.

BIRDAMLIK VA BARDAMLIK BAYRAMI

...29-may. Kechki soat 18.00 da shaharning markaziy stadioni 20 ming tomoshabinni o'z bag'riga chorladi. Maydon uzra ajib tarovat hukm surdi. Barchaning dilida Vatan tuyg'usi jo'sh urdi. Tantanavor saf tortgan, g'oliblikka tayyor jamoalar birin-ketin stadiongacha kirib kelganlarida, qalblar yayradi. Ayniqsa, yurt bayrog'i maydon uzra baland ko'tarilganida, ezgulik tantana qildi.

Sirdaryo viloyati hokimi Abdurahim Jalolov maktab o'quvchilarining «Umid nihollari – 2009» sport o'yinlarini ochiq deb e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning sport o'yinlari qatnashchilariga yo'llagan tabrigini O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Rustam Qosimov o'qib eshittirdi.

Tabrik gulduros qarsaklar bilan kutib olindi. Qarsaklar ovozi «Chaqqonmiz, ephilmiz va bardammiz», degan hayqiriq yangradi, go'yo. Shundan so'ng, yurt madhiyasi sadolari ostida mamlakatimiz bayrog'i va «Umid nihollari – 2009» respublika musobaqalari bayrog'i ko'tarildi. Qatnashchilar g'amxo'rlikka javoban ilm-fan cho'qqilarini mukammal egallashga, g'alabalar sari dadil borishga, maydonlarda bilimi, tafakkurini to'liq namoyon etishga qasamyod qildilar.

ULUG'VORLIK TANTANASI



Minxojiddin HOJIMATOV, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi rahbari, guruh boshlig'i:

– Sirdaryo bo'yi bugun dillarga o'zining qadim dostonini eslatdi. Sharq va G'arbni bog'lagan «Buyuk ipak yo'li»da karvonlar manzil sari dadil davom etyapti. Tarix sahifalarida «Sayxun» deb nom olgan zamin bugun Guliston deb nom olgan. Musobaqaning ochilish va yopilish tantanalaridagi ulug'vorlik Vatan qudratini beqiyos namoyon etdi.



DIYORINI GULLATGANNING BAXTI GULLAYDI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
SIRDARYO VILOYATI
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI
"BOLALAR SHAHARCHASI"

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da Sirdaryo «Dat» deb, qadimgi yunon tarixchilari asarlarida esa Yaksart deb atalgan. Sirdaryo viloyati hududidagi qadimgi manzilgozlar o'zining egallagan geografik o'rniga ko'ra, Sharq va G'arbni bog'lagan «Buyuk ipak yo'li» faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lganligini yaxshi bilasiz. Mustaqillik sharofati bilan Sirdaryo yanada yuksaldi, Sharq va G'arbni bog'lovchi zamonaviy avtomagistral yo'llari ham viloyat hududidan o'tgan. Bu yerda yoshlar uchun ko'plab inshootlar qad rostladi va rostimoqda. Guliston shahridagi «Bolalar shaharchasi» esa afsonaviy manzilgozga aylandi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ota-onasining qarovsiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar uchun «Bolalar shaharchalari» to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qaroriga binoan Sirdaryo viloyat Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 27-«Mehribonlik uyi» negizida Guliston shahrida «Bolalar shaharchasi» tashkil etildi.



«BOLALAR SHAHARCHASI»DA - OILA BAG'RIDA

«Umid nihollari - 2009» sport musobaqalari arafasida Guliston shahrida bolalarga atab bunoyd etilgan ko'plab sport inshootlari va boshqa ta'lim-tarbiya muassasalari foydalanishga topshirildi. Ular orasida shaharning 4-mavzesida qad rostlagan yangi tipdagi «Bolalar shaharchasi»ning ochilishi shahar ko'rkiga o'zgacha husn va tarovat bag'ishladi. Shahar ichidagi shaharchada bolalarning yashashlari, o'qishlari, bo'sh vaqtlarini mazmunli va maroqli o'tkazishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Shaharchada o'zgacha go'zal va fayzli hayot tarzi hukmron. Kottejlarga kirsangiz, shirin oila turmushiga guvoh bo'lasiz.

- Kelajakda kim bo'lasizlar? - so'radik oli yoshli Hasan-Husandan.
 - Prezident.
 - Men ham Prezident.
 - Nega Prezident bo'lishni xohlaysan?
 - Chunki u yaxshi odam, bizni yaxshi ko'radi. Qarang, bizga avtobus sovg'a qildi.



Mana, ulardan biri bilan tanishamiz: «Yangi avlod» oila onasi Feruza Umarova bolalar bilan qiziqarli suhbat o'tkazayotgan ekan. Ularning gaplariga quloq tutamiz. Suhbat «Umid nihollari - 2009» musobaqalari xususida ekan. Sport bayrami tantanalariga tayyorgarlik ko'rishda shaharcha bolalari ham faol ishtirok etishganligini ham alohida ta'kidlash kerak. Bolalar viloyatimizdagi mohir yosh sportchilar, ularning yutuqlari, musobaqalarda Sirdaryodan kimlar ishtirok etishganligini, musobaqalarda kimlar g'olib bo'layotgani - barchasini ular yaxshi bilishadi.

Oiladagi o'zaro iliq, samimiy munosabatga, bolalarning ahilligiga havasimiz keldi. Ichkarida - mehmonxonada Asadbekning tavallud kuniga hozirlik ko'rilayotgan ekan. Muhabbatga qizi Rayhona yordam berardi.

- Shaharchada har kuni bayram, quvonchli kunlar davom etadi, - deydi shaharcha rahbari Pokiza Ahmedjanova. - Onalar va tarbiyachilarning mehr og'ushida o'g'il-qizlarimiz oila quvonchlarini, uning mehr taftini his etib ulg'ayishadi. Ular turli mashg'ulotlar, o'yinlar bilan band bo'lib, bolalik quvonchlarini boshlaridan kechiradilar. Yurtboshimizning sovg'asi bilan yozgi ta'til kunlarida tabiat qo'yniga sayr-u sayohatlarga chiqamiz, turli tomshalarga boramiz. Bolalarga yaratilgan bunday g'amxo'rliklar «Bolalar shaharchasi»dan chiqarkanmiz, bu yerdagi o'g'il-qizlarning hech qachon ko'ngli o'ksimasligiga, doimo betashvish, shod-u xurram yashashlariga yana bir karra ishonch hosil qildik.

Xolida PARDABOYEVA, «Sirdaryo haqiqati» gazetasi bo'lim mudiri



Xabaringiz bo'lsa, gazetamizning o'tgan yil 30-iyundagi sonida shaharchaning qurilishi boshlangani haqida xabar bergan edik. Bugun esa shaharcha o'z egalari bilan yanada gavjum va fayzli. Bu yerda ota-onasining qarovsiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan 100 nafar bolalar kichik guruhlarda shakllanib oilaga yaqinlashtirilgan sharoitlarda tarbiyalanadilar. Har bir oilada 7-10 nafar bola bo'lib, ular uchun 10 ta uy-kottejlar tashkil etilgan. Umumiy maydoni 4,2 gektarni tashkil qilgan oila-uylari atrofiga mingga yaqin tup archa ko'chatlari ekildi. Bolajonlarni mehnatga o'rgatish, ularni meva va sabzavot mahsulotlari bilan muntazam ta'minlash maqsadida 0,95

gektar yer maydonida «Mehrijon bog'i» barpo etildi va 270 tup mevali daraxtlar ekildi. Bolajonlarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish, ularni sportga, badiiy ijodga va san'atga yo'naltirish, iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, o'z ishiga ijodiy yondashadigan to'garaklar va sport seksiyalari rahbarlari jalb etildi. Eng zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta'minlandi. Shaharchadagi «Pahlavon» xonadoniga kirganimizda, bolajonlar quvnoq nigohi qarshi oldi. Ular tushlikka tayyorgarlik ko'rishayotgan ekan. Bayramona bezatilgan dasturxon, har bir xonaning ozodaligi, saranjom-sarishtaligi e'tiborimizni tortdi. Biz ularni suhbatga tortdik.

YAXSHILIK YASHAGAN UYGA YOMONLIK KIROLMAYDI



- Bu men va O'rolning xonasi. Biz tengdoshimiz. Ulg'aysak, Vatanni himoya qiladigan askar bo'lamiz.




- Qarang, ko'ylagim chiroylimi? O'yijonim bilan bozorga birga borib, o'zim tanladim.

YAXSHI INSON BO'LAMAN
 Nasiba SHARIPOVA, 8-sinf o'quvchisi:
 - Uy ishlarini, dazmol qilishni juda yaxshi ko'raman. Ukalarim bilan shahka, shaxmat o'ynayman. Doimo yutamam. Hatto «Maqtov yorig'i» ham bor. Kelgusida qaysi kasbni egallamay, yaxshi inson, mehribon ona bo'laman.

XONADONIMIZ HOVLISI
 Jo'rabek MAMATQULOV:
 - Xonadonimiz hovlisidagi chizilgan rasmlarni ko'rdingizmi? Biz har kuni bu rasmlarni ko'rib, zerikmaymiz. Unda karvon o'tgan yo'llar, o'zbekona o'g'itlar, Sirdaryo tarixi, bunyodkorlik ishlari oqqush tasviri bizga mehr-muhabbat ramzi bo'lib ko'rinadi. Sirdaryolik rassom Anorqul Boybekov bu rasmlarni olti oy davomida chizganligini o'yijonim so'zlab berganlar.

TAOMIMDAN TA'TIB KO'RING

Salma NORMATOVA, 8-sinf o'quvchisi:
 - Taom pishirishni juda yaxshi ko'raman. Ammo bu ish onajonimdan ortmaydi. Bo'sh vaqtlarimda rasm chizishni yaxshi ko'raman. Rassom bo'lmoqchiman.



KATTA RAHMAT!

Ibrohim HALILOV:
 - Uymizga hamma havas qilyapti. Ayniqsa, futbol maydonida har kuni futbol o'yinash men uchun maroqli. Bizga shunday sharoitlarni yaratib bergan Prezidentimizga katta rahmat!

MOHIR TIKUVCHI

Nigora SHARIPOVA:
 - Opam ko'proq shaxmat o'ynaydi. Men esa tikuvchi bo'lishni orzu qilaman. Uy ishlaridan ortganimdan so'ng, shaharchamizda joylashgan mohir qo'llar to'garagiga qatnashaman. Kelgusida meni mohir tikuvchi deyishsa, xursand bo'laman.



BOLAJON YURT

Bektursun PIRMATOV,

urush va mehnat faxriysi, «Nuroni» jamg'armasi Guliston shahar bo'limi raisi:


– Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan joriy qilingan ushbu sport bellashuvlari xalqimizning farzandlarga bo'lgan mehr-muruvvati, bolajonligidir. Bunday ulkan sport anjumani Guliston shahri tarixida ilk bor o'tkazilayotir. Shahrimiz bunyodkorlik, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlaridan so'ng, yanada ko'rkamlashdi. Biz keksalar shahrimizga ko'rsatilgan bu yuksak e'tibor istiqloq sharofati ekanligidan behad mamnunmiz.

MEZBONLIK – SHARAF

Abdullajon ota ODILOV,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan irrigator:

– Gulistonliklarning yosh-u keksalari bu quvnoq sport shodiyonasiga o'z uyida, hovlisida o'tadigandek hozirlik ko'rishdi. Mehmonlarni ochiq chehra, qaynoq mehr ila kutib olishga shoshildi. Bunday shodiyonaga mezbonlik qilish esa sharaflidir.



KOLLEJDA SPORTCHILAR

Saxovatli Sirdaryo zaminining Guliston shahrida barcha qulayliklarga ega bo'lgan tibbiyot kolleji joylashgan. Bu yerda har bir viloyatdan kelgan badiiy gimnastika yo'nalishidagi yosh sportchi qizlarni uchratdik. Mezbonlik qilgan kollej talabalari bu ishni keragidan ortiq uddalashganini ta'kidlasharkan, ularga gazeta sahifalari orqali «rahmat» deb qo'yishimizni so'rashdi. Shu bahona talabalarni suratga olishga shoshildik.

Yuzlarida tabassum bilan qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, «Assalomu alaykum», deb kutib olayotgan talabalar-u ustozlargacha badiiy gimnastikachilarga barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilishdi. Ayniqsa, el sevgan san'atkorlar bilan bo'lgan uchrashuv yosh sportchilarga yanada qanot bag'ishladi. Ozodbek Nazarbekov, Alisher Fayz, Nilufar Saidovanning chiqishlari quvnoq o'yin-kulgilarga ulanib ketdi.

«SHOHSUPAGA CHIQQIN, BOLAM!»

– Allo, bobojon, duolaringiz meni qo'lladi. Men shohsupadaman, – deydi quvonib qashqadaryollik 1- o'rinni egallagan Sanjar Jo'rayev.

– Bobong ham polvonmilar? – so'raymiz undan.

– Ha. Meni o'zbek milliy kurashiga bobom qiziqtirganlar. Ular hozir 70 yoshdan oshganlar. Mening har bir musobaqamni kuzatadilar. 46 kg. vazn toifamda tengdoshimni halol yutdim. Men uchun «Umid nihollari» katta Olimpiadadir.

BAKSHIDA

*Uch yilda bir g'uncha – umid gulbog'i,
Vatan bolalarin cho'qqisi – tog'i.
Boshida do'ppisi, belda belbog'i,
Har birin ilkida Vatan bayrog'i,
«Umid nihollari» – Senda ibrat bor!*

*Uch bosqich bellashuv, ayting, qayda bor?
«Barkamol avlod» u, so'ngra cho'ng qator –
«Universiada» – bahsi betakror,
Lek o'zing ilk parvoz – parvoz betakror,
«Umid nihollari» – Senda hikmat bor!*

*Uch yoshli go'dak ham to'p tepaman der,
Albatta bo'laman shohsupada der,
Jahoniy bahslarda Vatan bayrog'in,
Yuksakka ko'tarib, tik tutaman der,
«Umid nihollari» – Senda maqsad bor!*

*«Umid nihollari» – sog'inchli bahor,
Yurtim sportida – nurafshon nahor.
Nuroni chollar-u munis momolar,
Vujudida bugun navqiron nado,
«Umid nihollari» – Senda g'ayrat bor!*

*Orzu ostonasi, ijobati – Sen,
Bolajon xalqimning muhabbati – Sen.
Bolakay shashtida chempion ko'rgan,
Yurtparvar Yurtboshim siyosati – Sen,
«Umid nihollari» – Senda rag'bat bor!*

Ahmadali SHERNAZAROV,
Guliston shahri

KATTA ISHONCH

Abdualil TO'RAYEV,
Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:

– Avvalo, «Umid nihollari»ning final bosqichi saxovatli Sirdaryo zaminida bo'lib o'tganligi biz uchun katta ishonch deb bilaman.

Bellashuvlarda 128 nafar sportchi yoshlarimizdan iborat 15 ta jamoa sportning 12 turida qatnashdilar. Umumjamoa hisobida 2-o'rinni egalladik.





NAMANGAN FUTBOLDA BIRINCHI!



CHINAKAM IFTIXOR

Ergash XUDOYNAZAROV,
*Xorazm viloyati Xalq ta'limi
boshqarma boshlig'i:*

– Yoshlik, nafasat, birdamlik bayramida faxrli 3-o'rinni egalladik. «Kichik Olimpiada»ning kuchli g'olibi bo'lish biz uchun chinakam iftixor.



Biz Guliston shahridagi yangidan qad rostlagan 1-bolalar va o'smirlar futbol maktabiga kirib kelishimiz bilan bolalarning hayajonli hayqiriqqa sherik bo'ldik. Maydonda shiddatli hujum. Yarim final bahsida 1- va



MAYDON KUCHLILARNI TANLAYDI

Mahmud BOBOYOROV,
*Samarqand viloyati Xalq ta'limi
boshqarma boshlig'i:*

– G'oliblikka katta umid bog'lagandik. Ammo shohsupa uchta-da. Jamoalarimiz sportning barcha turida chaqqon, epchil ekanliklarini namoyon eta oldilar. Ammo musobaqaning final bosqichlarida munosib kuchlilargina saralandi.

2-o'rin uchun Andijon va Namangan yosh futbolchilari bir-birlaridan bo'sh kelmasliklarini yaqqol namoyon etdilar. Ammo maydon baribir eng kuchlini tanladi. Namanganlik bo'lajak futbolchilar maydonni quvonchdan larzaga keltirishdi. G'alaba ta'mi shirin...



Shohsupaning 2-o'rnini band etgan andijonliklarning niyati birinchilik edi...

GO'ZAL O'YINLAR DAVOM ETADI



HAMJIHATLIK SARI

Begdulla SULTONOV,
*Qoraqalpog'iston Respublikasi
Xalq ta'lim vaziri:*

– Yoshlik va nafasat bayrami hamjihatlik bilan o'tdi. Sirdaryoliklar katta tayyorgarlik ko'rishibdi. Ularning mezbonlik bobida xizmatlari tahsinga loyiq. Bolajonlarning ham kayfiyati juda yaxshi. Ular bor qobiliyat va salohiyatini ishga solmoqda.

Go'zallik bayrami sport olamiga endi qadam qo'yadigan yosh sportchilarni kashf etishi shubhasiz.



Nigora DALIYEVA,
*Farg'ona shahridagi Bolalar va o'smirlar olimpiya
zaxiralari sport maktabi murabbiyi, sport ustasi:*

– Bugungi kunda qirqdan ortiq shogirdlarim ko'plab musobaqalar ishtirokchisi va g'olibi bo'ldi. «Umid nihollari – 2009» sport musobaqalarida ham badiiy gimnastika yo'nalishi bo'yicha bir nechta shogirdlarim ishtirok etayapti. Biriga g'oliblik nasib etsa, biriga mag'lubiyat. Mag'lubiyat qanchalik achchiq bo'lmasin, shogirdlarim navbatdagi bellashuvlarda yanada go'zal o'yinlarni davom ettirishdi. Chunki yosh sportchilarim juda

yaxshi bilishadi: ushbu sport musobaqalari ijodiy va do'stona bellashuvdir.



TOTUVLIK BAYRAMI

**Dilmurod RAHMATILLA-
YEV,** *Andijon viloyati, Xalq
ta'limi boshqarma boshlig'i:*

– Sirdaryoliklar mehmondo'stlikda vodiylıklardan aslo qolishmadi. Katta sport bayramida qatnashgan iqtidorli o'quvchilarimiz barcha bahslarda munosib qatnashdilar. Adolat, o'zaro totuvlik, ommaviylik va mahorat musobaqalarida qatnashayotgan farzandlarimiz, albatta, jahon maydonlariga yo'l olajak!



QATNASHGANIMIZ – BAXT

Solijon QOBILOV, *Jizzax
viloyati Xalq ta'limi boshqarma
boshlig'i:*

– Bellashuvlarga viloyatimizning 128 nafar yosh sportchilari qatnashdi. Bolalar kayfiyati yuqori. Garchi bosh sovrinni qo'lga kiritolmasakda, «kichik Olimpiada»da qatnashishning o'zi baxt.



NODIRA VA GULKANDAN UMIDIM KATTA

Jamila BOYMURATOVA,
*Qoraqalpog'iston
Respublikasi, basketbol
bo'yicha murabbiy:*

– Qashqadaryoda o'tgan yoshlik bayramida shogirdlarim uchinchi o'rinni qo'lga kiritishgan edi. Bu safar esa faqat birinchilik uchun kurashishdi. Bu tabiiy, albatta.

Yildan-yilga yosh sportchilarimizning tajriba va salohiyati ortib borayapti. Basketbolchi qizlarim orasida Nukusdagi 34-maktab o'quvchilari – Nodira va Gulxandan kelgusida umidlarim katta.



XUSH QOL, SIRDARYO -



...31-may. Soat 18.⁰⁰
Markaziy stadionda boshlangan yakuniy tadbir uchun taraddud boshlandi. «Yoshlik» markaziy stadioniga g‘olib jamoalar musiqa sadolari ostida birin-ketin tashrif buyurdilar. Hayajonli daqiqalar qalbimizni Vatan mehriq, kuylar sehriga oshufta etdi. Go‘zal onlarning har bir soniyasida qalb faxr tuyg‘usi qo‘shig‘ini boshladi. Bu qo‘shiq yurt muhabbatining mehr qo‘shig‘i bo‘ldi. Maydonga «Umid nihollari – 2009» sport o‘yinlarining oltin, kumush va bronza medallari sovrindorlari kirib kelishdi.

Umumjamoat hisobida 1-o‘rin Toshkent shahriga, 2-o‘rin mezmon Sirdaryo viloyatiga, 3-o‘rin esa qadimiy va navqiron Xorazm diyorining sportchilariga topshirildi. Tantanalar davomida bosh sovrin – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Umid nihollari – 2009» sport o‘yinlari ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigining asl nusxasi va «Damas» avtomobilini toshkentliklar qabul qilib olishdi. Sirdaryo va



KO‘RISHGUNCHA, NAVOIY!

Xorazm viloyati yosh sportchilari ham Prezident sovg‘asi «Damas» avtobomilini maydon uzra ko‘z-ko‘z etishdi. Turli nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar ham qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanishdi. Shundan so‘ng, uch kun davomida porlab turgan mash‘ala asta-sekin so‘ndirildi. Ammo beg‘ubor yuraklarda uning tafti aslo o‘chmagay! Mezbon sirdaryolik yoshlar «Umid nihollari – 2009» bayrog‘ini navoiylik do‘stlariga topshirdilar. Shu onda ozod elning osmonlari yanada baland bo‘ldi. Maydon uzra qo‘shiq sadolari kezdi...



DUNYO NIGOHI DAGI BAYRAM

Jahongir MUSAYEV, Xalq ta‘limi vazirining axborot xizmati boshlig‘i:
– Keskin va murosasiz o‘tgan bahslar nihoyat yakunlandi. Musobaqalar Nizomga muvofiq, Olimpiada talablariga qat‘iy amal qilgan holda o‘tkazildi. «Umid nihollari-2009» sport o‘yinlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan kelgan 1792 nafar o‘quvchilar sportning 12 turida o‘zaro bellashdilar. Bellashuvlarni 200 nafar ommaviy axborot xodimlari muntazam yoritdilar. Internet tarmog‘imizda qizg‘in bellashuvlar, fotolavhalar, tezkor ma‘lumotlar, ingliz va rus tillarida doimiy berib borildi. Xorijiy mamlakatlarda yashovchi do‘stlarimiz maktab o‘quvchilarining «kichik Olimpiada» musobaqalarini kuzatib borib, o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar.

G‘OLIBLIK GASHTI



Boburjon SATTOROV:

– Men Denov tumanidagi 2-litseyda o‘qiyman. Shaxmatga qiziqaman. Raqibim farg‘onalik Alisher ham juda mahorat bilan o‘ynar ekan. Men ham qolishmadim va g‘alaba qildim. Bu muvaffaqiyatim nafaqat o‘zimga, balki ustozim hamda surxondaryolik tengdoshlarimning ham yutug‘idir. Bundan faxrlanam.



Ushbu maxsus sonni **Feruza ODILOVA** va **Ma‘mura MADRAHIMOVA** tayyorlashdi
Toshkent-Guliston-Toshkent



BOSH MUHARRIR:
To‘lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchilar:
Zuhra MUHSIMOVA,
Fazliddin SHOYODGOROV,
Elyor ESHCHONOV
Navbatchi:
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro‘yxatdan o‘tgan.

TAHRIR HAY‘ATI:
G‘ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o‘rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 58245
Buyurtma N: J 7525

Muassislar:

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG‘LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo‘lmagan Xalqaro xayriya jamg‘armasi.